

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№ DF74546816**

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** Bog‘ot tuman Tibbiyot birlashmasi bilan “Bog‘ot Sadosi” gazetasi tahririyati bilan obuna shartnomasi tuzish to‘g‘risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:** Bog‘ot tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 5-yanvar kuni markazga yuborilgan. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilingan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tumani yuridik  
xizmat ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti:**



**G.Urazimbetov**

**06.01.2022**

**BOG'OT TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI BO'YICHA:  
SHARTNOMA**

2022-yil 5.1

1 -son

Bog'ot shaharchasi

«Bog'ot sadosi» gazetasi tahririyati bundan buyon matnda «Xizmat ko'rsatuvchi» deb ataluvchi nomidan rahbari SH.Usmonxo'jaev faoliyatini amalga oshiruvchi bir tomondan **Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi** bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb ataluvchi nomidan rahbari A.Saidov faoliyatini ko'rsatuvchi, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzishdi.

**1. SHartnoma mazmuni**

1.1.«Xizmat ko'rsatuvchi» shartnomada ko'rsatilgan xizmatni bajaradi, «Buyurtmachi» esa shartnomada ko'rsatilgan xizmatni o'z vaqtida va belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

1.2.

Xizmat turi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
«Bog'ot sadosi» gazetasi obunasi	dona	60	75 000	4 500 000
				<b>4 500 000</b>

**2. Shartnoma narxi, baxosi, summasi (qiymati)**

2.1. SHartnomaning umumiy 4 500 000 (to'rt million besh yuz ming) so'm byudjetdan tashqari manbaalar hisobidan to'lanadi.

**3. To'lov shartlari**

3.1. «Buyurtmachi» «Xizmat ko'rsatuvchi»ning hisob raqamiga shartnomada ko'rsatilgan xizmat turi summasining 100 foizini oldindan 10 bank ish kunida o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. To'lov turi: \_\_\_ to'lov topshiriqnomasi  
(tulov talabnomasi, tulov topshirismomasi, chek akkreditiv va boshqalar)

**4. SHartnomaning bajarilish muddati**

4.1. SHartnomaning 1,2-bandida ko'rsatilgan xizmat turi «Buyurtmachi»ga shartnoma imzolanganidan keyin 10 kun vaqt ichida topshirilishi shart.

4.2. SHartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil «30» dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

**5. Taraflar huquqlari**

5.1. «Buyurtmachi»ning huquqlari:

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan xizmat turlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishni «Xizmat ko'rsatuvchi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Xizmat ko'rsatuvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

5.2. «Xizmat ko'rsatuvchi»ning huquqlari:

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan xizmatlar uchun oldindan to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitoblarni amalga oshirishni «Buyurtmachi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Buyurtmachi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, xizmatni qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

**6. Taraflar majburiyatlari**

6.1. «Xizmat ko'rsatuvchi» majburiyati:

6.1.1. SHartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga xizmat ko'rsatish;

6.1.2. Tegishli darajada sifatli xizmat ko'rsatilganligi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bajarilmagan xizmat turini 30 kun ichida qaytadan xizmat ko'rsatib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bajarilmagan xizmat xaqini qaytarib berish.

6.2. «Buyurtmachi» majburiyati:

6.2.1. Bajarilgan xizmatni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan xolda ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida xizmatni qabul qilib olish;

6.2.2. Tegishli darajada sifatli bajarilmagan xizmat qilingani aniqlangandan keyin bu xaqda dalolatnoma yozilib 24 soat ichida «Xizmat ko'rsatuvchi»ni ogohlantirish.

6.2.3. Bajarilgan xizmatning baxosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

**7. Taraflar javobgarligi**

7.1. Xizmat ko'rsatish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rioya qilinmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'lik qoplaydi.

**8. Fors-major holatlari**

8.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida zimmasiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas.

**9. Nizoni hal qilish tartibi**

9.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'lik masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

9.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal qilinadi.

10. SHartnomaga o'zgartish va ko'shimchalar kiritish tartibi

10.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartish va ko'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.


**11. Boshqa holatlar**

11.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan.

**12. Taraflarning yuridik manzilgohi va to'lov rekvizitlari**

«XIZMAT KO'RSATUVCHI»

«BUYURTMACHI»

«Bog'ot sadosi» ro'znomasi	Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi
Manzili: Bog'ot tumani, Feruz ko'chasi, 14-uy.	Manzili: Toshkent ko'cha 2-uy
Tel: 31-51-728	Tel.: 62 31 52 531
X/r: 20210000100434453001	Sh/xr: 400322860332047073101054002
Agrobank Bog'ot filiali	Markaziy bank Toshkent sh XKKM
MFO: 00556	MFO: 00014
INN: 200426168	STIR: 200426871
OKONX: 87100	OKONX: 91511
	MV yagona g'azna x/v
Rahbar:  Sh.Usmonxo'jaev.	x/r: 23402000300100001010
	Rahbar:  A.Saidov

